SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences

Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)

2025

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V5I10Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

***№ 10 (5) – 2025***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2025**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY’ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o‘g‘li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo‘limi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O‘ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b,;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent,;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo‘raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G‘aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo‘min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O‘roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko‘chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G‘aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog‘ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 10-son (oktyabr, 2025). - 538 bet.

**MUNDARIJA**

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Jahongirov Burxon*
O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI ........ 13-18

*Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li*
AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI ........ 19-23

*Atamuratova Dilafruz Rashidovna*
XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI ........ 24-28

*Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich*
FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA
DOIR QARASHLAR TAHLILI ........ 29-34

*Лукашова Наталья Михайловна*
ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА,
ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ ........ 35-40

*Asadova Ra'no Baymanovna*
1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK
VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI:
TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR ........ 41-44

*Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich*
ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI ........ 45-52

*Tursunov Farrux G'ulomovich*
QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI
O'ZGARISHLAR ........ 53-58

*Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna*
XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI
VA ULARNING XUSUSIYATLARI ........ 59-63

*Муминов Азизбек*
ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ,
ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА ........ 64-69

*Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li*
YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY
RAMZ SIFATIDA ........ 70-74

*Tuyev Fazliddin Erkinovich*
BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY
ALOQALARI ........ 75-80

*Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli*
QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT
TARMOQLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY ROLI:
TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR ........ 81-85

*Jumayeva Shohida Choriyevna*
SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR ........ 86-90

*Azatov Allayar*
RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR ........ 91-99

*Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna*
LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI ........ 100-105

*Orunbayev Aslı*
IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G'OYALARINING SHAKLLANISHI ........ 106-113

*Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich*
XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O'RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR ........ 114-116

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abdujalilov Xojiakbar Abdujalil o'g'li*
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI ........ 117-122

*Bazarova Gulnora Gulamovna*
O'ZBEKISTON IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO'LIDAGI RIVOJLANISH)........ 123-127

*Yadiyarova Shahnoza*
THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES ........ 128-135

*Нурмуродов Камолиддин Пирмаматович*
НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ ........ 136-141

*Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna*
O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI ........ 142-146

*Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi*
TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO'STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ........ 147-150

*Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi*
THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM ........ 151-154

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Yusupova Ranoxon Tolibjonovna*
TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE ........ 155-158

*Adilov Zafar Yunusovich*
MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI ........ 159-165

*Xo'janova Tamara Jo'raevna*
YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI ........ 166-170

*Narziyev Zubaydillo Ibodilloyevich*
AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA ........ 171-175

*Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna*
YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLAR VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI ........ 176-179

*Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich*
UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI ........ 180-185

*Shamsutdinova Nigina Karimovna*
ABU ALI IBN SINO IRFONIY QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA ........ 186-190

*Pardayeva Marhabo Davlatovna*
"ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI ........ 191-197

*Aripova Zulfiyaxon Solijonovna*
SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA ........ 198-203

*Muxtorova Tutixon*
ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI ........ 204-211

*Xakimov Abdulboqi*
YOSHLARDA MANTIQIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI ........ 212-216

*Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich*
ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI ........ 217-224

*Taniqulov Jonibek Ashirkulovich*
TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL ........ 225-229

*Бердалиева Севара Дамировна*
СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ ........ 230-234

*Хушбоков Ойбек Уралович*
СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ ........ 235-239

*Fayziyev Xurshid Jumayevich*
VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 240-244

*Muxiddinova Xakimaxon G'ulomovna*
EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA ........ 245-250

*Zokirov Mirzo*
MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR ........ 251-255

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

*Jo'rayev Nabi Narziyevich*
O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI ........ 256-262

*Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna*
PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH ........ 263-267

*Zaripova Matluba Kulfidinovna*
GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN ........ 268-271

*Sayipova Dilobar Raximovna*
ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI ........ 272-275

*Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi*
TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES ........ 276-281

*Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi*
TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATIONOF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES ........ 282-288

*Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda*
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARNING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI ........ 289-293

*Abduraximova Feruza Boxadirovna*
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING QIYOSIY TAHLILI ........ 294-300

*Jalolova Feruza Normurodovna*
INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI ........ 301-305

*Ahrorova Nigina Anvarovna*
MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI ........ 306-309

*Razikov Baxtiyor Kosimovich*
MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O'ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA ........ 310-314

*Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi*
GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES ........ 315-319

*Nazarova Sabrina Zafarjon qizi*
YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI ........ 320-323

*Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы*
ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ» ........ 324-326

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR


*Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi*
HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI ........ 327-333

*Abdullayev Rustam Kaxramanovich*
JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI ........ 334-339

*Давронов Атобек Равшанович*
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ ........ 340-349

*Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi*
O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV ........ 350-355

*Исламов Самандар Олимжон угли*
ПРАВАВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ ........ 356-363

*Uteniyazov Keulimjay Kuanышbayevich*
AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI ........ 364-370

*Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich*
ASOSSIZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR ........ 371-375

*Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev*
ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI ........ 376-380

*Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна*
ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА ........ 381-388

*Axmedov Dilshod Baxramovich*
MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI ........ 389-394

*Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li*
DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI ........ 395-401

*Bozorov Ulug'bek*
TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI ........ 402-407

*Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna*
O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI ........ 408-413

*Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna*
TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI ........ 414-420

*Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o‘g‘li*
MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO‘ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O‘TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI ........ 421-428

*Salomov Xumoyun*
OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA’MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI ........ 429-433

*Kakhramonova Aziza*
THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE ........ 434-437

*Xoliqova Gavhar Ramazon qizi*
XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI ........ 438-444

*Sharipov Firdavs Xolnazarovich*
OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI ........ 445-450

*Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna*
PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE ........ 451-456

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna*
TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 457-462

*Nabiullin Rishat Xismatullovich, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich*
XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O‘ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH ........ 463-468

*Xudayberganov Otabek Erkinovich*
BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O‘QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH ........ 469-474

*Nishonova Dilafruz*
O‘QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI ........ 475-480

*Davletyarova Laylo Baxodirovna*
YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI ........ 481-486

*Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich*
O‘RTA MAKTAB O‘QUVCHILARI O‘RTASIDA ZO‘RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI ........ 487-493

*Шавилова Наталья Сергеевна*
ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ ........ 494-500

*Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi*
FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH ........ 501-508

*Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna*
ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ........ 509-515

*Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi*
RAQAMLI MUHITDA O‘SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI ........ 516-519

*Usmonqulov Jo‘rabek Erkin o‘g‘li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi*
TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA’LIMNING O‘RNI VA AHAMIYATI ........ 520-525

*Xayitova Dilovar Ismat qizi*
STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI ........ 526-532

*Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna*
THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS ........ 533-537

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 10 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 15 September 2025
**Accepted:** 1 October 2025
**Published:** 10 October 2025

*Article / Original Paper*

# CHANGES IN THE CRAFTSMANSHIP TRADITIONS OF THE TAJIKS OF THE KASKADARYA OASIS

**Tursunov Farrukh Gulomovich**
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor,
University of Science and Technology
First Vice-Rector for Youth Affairs and Spiritual and Educational Affairs,
Researcher at QarSU
E-mail: f.tursunov83@mail.ru

**Abstract.** The article analyzes such types of crafts as weaving, woodcarving, basketry, word-making, soap-making, and basketry, and shows that crafts and weaving are reflected in folk folklore.

**Keywords:** weaving, basketry, iraqi, duk, sholcha, jirob, deggaron, kosatarosh, "noni rasida", "noni degi", "tobasang".

# QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI O‘ZGARISHLAR

**Tursunov Farrux G‘ulomovich**
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
Fan va texnologiyalar universiteti
Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori,
QarDU tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Maqolada hunarmandchilikning bofandagi (to‘quvchilik), kandakorlik (yog‘och o‘ymakorligi), savat to‘qish (xarrotlik), so‘zani to‘qish, sovun tayyorlash (sobunpazi) va kosagar kabi turlari tahlil qilingan bo’lib, hunarmandchilik va to‘quvchilik xalq og‘zaki ijodi namunalarida o‘z aksini topganligi ko’rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** kandakorlik (yog‘och o‘ymakorligi), xarrotlik (savat to‘qish), iroqi, duk, sholcha, jirob, deggaron, kosatarosh, “noni rasida”, “noni degi”, “tobasang”.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N08

**Kirish.** Hunarmandchilik uzoq tarixiy jarayonlarda shakllangan bo’lib, qadimgi shaharlar, savdo markazlari orqali hunarmandlar o‘z mahsulotlarini bozorlarga yetkazib berib kelishgan. Tojiklar hunarmandchiligi alohida quyidagi alohida guruhlarga: to‘qimachilik, gilamdo‘zlik, kashtachilik, misgarlik va boshqalarga bo‘lingan. Ushbu hunarmandchilik turlari ko‘pincha uy hunarmandchiligi shaklida, oilaviy yoki mahalla darajasida rivojlangan.

O‘rta Osiyoda gilamdo‘zlik miloddan avvalgi II ming yillikda shakllana boshlagan. Qashqadaryo vohasidagi gilamchilik shahar madaniyati va ko‘chmanchilik elementlarini o‘zida mujassam etgan. Vohada istiqomat qiluvchi tojiklarning gilamdo‘zlik an’anasi qadimiy diniy e’tiqod, iqlim sharoiti hamda tabiat manzaralari, aholining turmush tarzi ta’sirida rivojlangan. Gilamlardagi osmon jismlari (quyosh, oy va yulduzlar) hamda tabiat manzaralari (gullar, soy va

daryolar, togʻlar, daraxtlar kabi) tasviri qadimiy ildizlarga ega. Oʻzbeklar kabi tojiklar gilamlarida ham osmon jismlari va tabiat manzaralarining taʼsiri yetakchilik qiladi. Gilamlardagi hayvon shoxlari tasvirining aks etishi chorvachilik bilan bevosita bogʻliq.

***Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bofandagi (toʻquvchilik)*** – Oʻzbekistonning turli hududlari qatori Qashqadaryo tojiklari orasida jun va ipak matodan foydalanish takomillashgan.

Maxsus toʻquv dastgohlarini yasovchi ustalar yashaydigan guzar "*dukchiho*" (*duk* yasaydigan ustalar), *"charxchiho"* (ip yigiruvchi asbob *charxchi ustalar*) deb nomlangan. Qashqadaryo tojiklari qoʻlda ip yigiradigan kichkina charxning ip oʻraladigan qismini *duk* deb ataydi. Ip yigirish bilan shugʻullanuvchi shaxs ismiga esa dukchi soʻzi qoʻshib ishlatilgan. Mahalliy tojiklar hali ham dukda ip yigirib, *gilem* (gilam) toʻqishadi. Ayrim naqshli gilamlarni *iroqi, arabi* kabi nomlar bilan atashadi. Tojiklarning *iroqi* deb nomlanuvchi kashtachilik namunalari ham saqlanib qolgan. Shuningdek, Qashqadaryo tojiklari qoʻy terisidan toʻshaladigan *poʻstak* tayyorlashgan. Yaqin kunlargacha aksariyat tojik xonadonlarida yumshoq ipdan hajmi uncha katta boʻlmagan *shol* yoki *sholcha* toʻqilgan. Tekislikda istiqomat qiluvchi tojiklar ip yoki jundan toʻqilgan paypoqlarni *jirob* deyishgan.

Eskibogʻ qishlogʻi aholisining yarmi temirchilik bilan shugʻullanib, uy-roʻzgʻor va xoʻjaliklarda temir asboblar yasagan. Ularning temirchilik asboblari u qadar ishlatilmagan, chunki Buxoroda *qarotegin pichogʻi* shuhrat qozongan. Boshqa qishloqlarda temirchilar taqa, etik va boshqalar yasagan. Katta-Oʻra va Kichik-Oʻrada (Anorbuloq, Boshchorbogʻ, Qizilmazor qishloqlari) ayollari hayvon junidan kigiz (namad), arqon, juval, xurjun, gilam va hokazolar yasashgan. Gilamlar badiiy toʻqilgan va xilma-xil boʻlgan. Gilamlarning quyidagi nomlari bor edi: "*haчari*", "*bulbulaki*", "*imomsultonū*", "*qoxma*" (*qoqma*), "*Shermat*" va boshqalar [11; b.17]. Tamshush qishlogʻidagi temirchilik ustaxonasiga mahalliy aholining ehtiyoji bor.

Tojiklarning mehnat qurollari, uy-roʻzgʻor buyumlari va xonadon devorlari sirtiga turli xildagi ramziy tasvirlar chizilgan. Gʻelonning sinch qilib qurilgan devori *qalama* deyilgan. Koʻl qishlogʻi hududidan mahalliy aholi tomonidan topilgan ip oʻtkazishga moʻljallangan teshikli tosh tumor bu yerda oʻtmishda sangtaroshlik rivojlanganligidan dalolat beradi.

Birgina Gʻelon qishlogʻining oʻzida duradgorlik, xattotlik, tovoqtaroshlik, temirchilik, zargarlik, toʻqimachilik, kashtachilik, rang sanʼati va boshqa hunarmandchilik sohalari rivojlanib kelgan. Sangtaroshlik, juvozdoʻzlik va tosh tegirmonda un chiqarish ham bugungi kunga qadar ravnaq topib kelmoqda. Gʻelon va Koʻl qishloqlarida mahalliy aholi suv tegirmonlaridan bugungi kunda ham foydalanishadi. Koʻl qishlogʻida temirchilik ustaxonasi ham mavjud. Amir Said Olimxon va undan oldingi xonlar va amirliklar davrida Gʻelonda temirchilik asbob-uskunalarini yasash bilan birga harbiy uskunalardan qalqonsozlik, kamonsozlik bilan usta Rustam va usta Abdukarimlar shugʻullanishgan. Pichoqsozlik esa XX asrda usta Abdurali, usta Toʻychi, usta Rahmonqul va boshqalar tufayli Oʻrta Osiyoda dong taratgan. Gʻelonlik Roʻziboy Qurboniyonning taʼkidlashicha, Duradgorlikda nom qozongan usta Toshi Abdurauf, usta Bobojon, usta Mahmadamini Nigor, usta Abdulhakim, usta Abdurahim, usta Chorshanbe, usta Niyoz, usta Abdugʻani xalq tilidan tushmaydi. Hunarmandchilik anʼanalari davomli boʻlib, bugungi kunda ularning shogirdlari Shernazari Mirzonazar, Mahmarahimi Sharif, Muhammadiquli Niyoz, Mustafoquli Sadriqul, Narzulloi Xayrullo, Xolmurodi Shanbiya, Eshonquli Turdiqul va boshqalar hunarmand kishilardan hisoblanadi.

Mashhur hofizlar ham Ruziboy Muttailloev yasagan rubob, tor va tamburlar, usta Abdurali, Niyozmurod Shodimurodovlar yasagan dutorlardan foydalanib kelishgan [3].

Turkiy xoqonlar oʻz tamgʻasi sifatida togʻ echkisi tasvirini olgan. Togʻ echkisi eʼtiqodi turkman va tojiklarda koʻp uchraydi. Turkmanlarda qabila nomi u bilan bogʻliq boʻlib, eng yirik qabilalararo ittifoq "teke"-echki degani. Tojiklar, sut moʻl boʻladi, deb uylarida echkini tasvirlangan. Turli xalqlarda qasam sifatida echki goʻshti yeyilib, qoni ichilgan [7; b.469]. Tekisliklarda istiqomat qiluvchi tojiklar echki junidan toʻquvchilik maqsadida foydalansa, togʻli tojiklar paxta bilan aralashtirib yostiqlar ichiga solishgan. Echki junidan yostiqlarda foydalanilishiga sabab nam havoga chidamliligi va undan uzoq vaqt foydalanish mumkinligi boʻlib hisoblanadi.

***Kandakorlik*** **(*yogʻoch oʻymakorligi*)** — yuqori Qashqadaryoda yashovchi Koʻl, Sumak, Gʻelon kabi qishloqlardagi tojiklar orasida *kandakorlik* (*yogʻoch oʻymakorligi*) ancha rivojlangan va avloddan avlodga meros boʻlib oʻtadi. Kitob tumanidagi Sumak qishlogʻida istiqomat qiluvchi ayrim tojiklar xonadonining kirish eshiklari naqshinkor boʻlib, ular XVIII-XIX asrlarga oid. Eshikka ustaning ismi sharifi ham oʻyib yozib qoʻyilgan.

Qamashi qishlogʻidagi nuroniylarning taʼkidlashicha, qishloqda gʻisht tayyorlovchi xumdon boʻlgan. Axborotchimiz Murod Choʻllievning taʼkidlashicha bu pishiq gʻishtlardan boshqa hududlarga ham olib ketishgan [4].

Qashqadaryo tojiklari orasida bir necha asrlardan buyon hunarmandchilikning bir qator turlari rivojlangan. Ayrim shaxslarning ismiga uning kasbi ham qoʻshib aytilgan va yozilgan. Masalan, "Abu Abdulloh Tohir ibn Muhammad as-Sufiy al-Buxoriy al-Voiz Buxoro ahlidan boʻlib, al-Haddodiy nomi bilan tanilgan edilar. Naxshabning Bazda qishlogʻida yashaganlar. Ota-bobolari temirchilik bilan shugʻullanganliklari sababli «al-Haddodiy» taxallusini olganlar" [1; b.24].

Poradoʻz [fors-tojikcha پاره دوز yamoqchi] – oyoq kiyimlarni yamovchi, oyoq kiyim yamoqchisi boʻlib hisoblangan. Ayrim kasblar joy nomining kelib chiqishiga asos boʻlgan. Masalan, Shahrisabz va Yakkabogʻ tumanidagi Moʻchin qishlogʻi aholisi qishloq nomini tojikcha *moʻy* (tuk) va *chin* (termoq) soʻzlarining qoʻshilishidan hosil boʻlgan deyishadi.

Muhammad Tolibning "Matlab ut-tolibin" asarida quyidagi misralar keltiriladi: — "Eʼtiborli kishidan eshitgan edimki, Abdusamadbiy kenagas Shahrisabz viloyatida kasallikka chalindi. Kasallik zoʻraygan paytda tush koʻrdi. Tushida bir odam uni osmonga olib ketardi. U hayajonlanib, iztirobga tushgan paytda boshqa bir odam paydo boʻlib, osmonga olib ketayotgan odamdan soʻradi: Sen bu kishini qayoqqa eltyapsan? U hazrat eshonning muxlislari jamoasi va ishonchli kishilari firqasidandir! U odam hazrat eshonning nomini eshitgach, darhol (113a) uni qoʻyib yubordi. Abdusamadbiy iztirobga toʻla holatda uyqudan turib dedi: Hazrat eshonning sharofati bilan bu kasaldan tuzalaman, inshoallohu taolo! Oʻsha paytda hazrat eshon Nasaf viloyatida edi. Oʻzi kiyib yurgan gujarotiy kardikani (?) latif badanidan yechib, Shodmonxojaga berib dedi: Shahrisabzga eltib, u yerda kasal yotgan Abdusamadbiy kenagasga kiydirib, oʻrnidan turib yurishini tayinla! Shodmonxoja hazrat eshonning amriga binoan, kardikani eltib, unga kiydirdi. U darhol sihat topib, oʻrnidan turib yurib ketdi" [2; b.165]. *Kardika* savdogarlar tomonidan Hindistondan keltirilgan kiyim boʻlishi mumkin. Kasbi tumanidagi Qamashi qishlogʻida "Birindi" (bir hindistonlik) maʼnosini bildiruvchi urugʻ istiqomat qiladi.

***Xarrotlik (savat toʻqish)*** – nafaqat meva va sabzavotlarni saqlash, balki uy ayvonlarini bezash uchun ham ishlatilgan. Kitob tumanidagi Sumak qishlogʻi oqsoqoli Faxriddin Xisomov bugungi kunda ham xarrotlik bilan shugʻullanadi. U kishi yashaydigan xonadonning kirish qismi savatlar bilan bezatilgan [5].

Manbalarda keltirilishicha, *jiylon* – tok shoxlari. Undan savat va boshqa har xil narsa toʻquvchi (yasovchi) kishi «*Jiyloniy*» deyiladi. Tabaristonning ortida mashhur Jiylon shahri ham bor.

*Abu Muhammad Ahmad ibn Muhammad al-Jiyloniy* shu nisbat bilan mashhurdirlar. Bu kishi Nasaf ahlidan boʻlib, keyinchalik Buxoroda yashaganlar [1; b.168].

***Soʻzani toʻqish***. Soʻzani toʻqish va devorlarga ilib qoʻyish an’anasi Qashqadaryo vohasining togʻli hududlari va tekisliklarida yashovchi tojiklari orasida keng tarqalgan. Aslida oʻzbeklar va tojiklarning kashtasi ayrim qoʻshimcha bezaklari bilan farq qiladi xolos. Ba’zi naqshlarni hududlarga qarab toʻqilganligini yozish mumkin, biroq oʻzbek va tojik kashtachiligi orasida farqli jihatlarni payqash qiyin, ikki millat toʻquvchiligidagi umumiylikni e’tirof etish kerak.

Buxoro, Shahrisabz va Qarshida asosan zanjirli tikuvli asbob yoyilgan boʻlib, u boshqa viloyatlarda juda cheklangan (masalan, Samarqandda faqat bargli bezaklarni ramkalash uchun ishlatilgan). Buxoroda tojikcha *darafi* nomi bilan mashhur boʻlgan bu qurilma nihoyatda rivojlangan [12; b.82].

1880—1890-yillarda Samarqandda ilgari odat boʻlmagan, ishlab chiqarilgan yoki qoʻlbola ipak matolarga kashta tikilgan boʻlsa-da, Buxoro va Shahrisabz kabi boshqa joylarda ayniqsa boy kashta tikishda mahalliy ishlab chiqarilgan ipak matolardan, birinchi navbatda, qizil-binafsha rangdan foydalanilgan [12; b.19].

Tojiklar hunarmandchiligi bilan bogʻliq marosimlar A.L.Kun [6; л.91] tomonidan 1871-1872-yillarda rasmlari bilan koʻrsatib oʻtilgan edi. Unda tojiklarga xos boʻlgan hunarmandchilik bilan bogʻliq “*kulcha dar bagʻal andaxten*” (“*qoʻyniga kulcha solish*”), “*vuaxurdi” tushligi*, “*bazmi arvohi pir*” (“*arvohi pir bazmi*”) kabi marosimlar qayd qilingan.

Qashqadaryodagi kasb-hunarlar oʻzbek tili bilan birga tojik tilida ham atalgan. Hududdagi hunarmandchilik va zargarlikning rivojlanishida tojiklarning ham munosib hissasi bor. Hududdagi qozon yasovchi hunarmandlar (fors-tojikcha) *deggaron* deb atalgan. Hunarmandchilik buyumlarini bir joydan ikkinchi joyga olib borib sotish hunarmandlarga qiyinchilik tugʻdirgan. Shuning uchun ham koʻchma hunarmandchilik ustaxonalari oʻz faoliyatini yuritgan. *Koʻza, xumcha, obdasta* kabilardan kundalik turmushda keng foydalanilgan. Igna yasovchi ustalar soʻzangar deb atalgan, Nasafda tugʻilgan Shamsiddin Muhammad ibn Ali Soʻzaniy (Hakim Soʻzaniy) (1041-1174) mahoratli usta boʻlganligi bois shunday taxallusni olgan.

***Sovun tayyorlash (Sobunpazū)***. Badan va kiyimlarni yuvish uchun ishlatiladigan sovun boʻladi. U haqda Sayidoyi Nasafiy iqtibos keltirgan:

*Shӯxi sobunpaz, ki megӯyand boshad tundxӯ,*
*Ҷomai xud borho shustem bo sobuni ӯ* [8; b.96].
*(Sovunchi hazilkash, biroq sovuni achchiq deyishadi,*
*Biz uning sovuni bilan koʻp marta kiyimlarimizni yuvdik.)*

***Kosagar***. Kosa va tovoq yasaydigan kosachi, kulolga; *kosatarosh* esa yogʻochdan piyola va kosa yasovchi hunarmandga [10; b.655] nisbatan qoʻllanilgan. Dastlab kasb-hunarga doir

soʻzlar kishilarning laqabiga aylanib, keyinchalik joy nomi sifatida ifodalangan. Kitob tumanida joylashgan qishloq, Koson, Qarshi va Shaxrisabzdagi guzarlar shu nom bilan ataladi. Kosagar, koʻzagar, tandirsoz kabi kulollar oʻzi yasagan buyumlarga tabiat va mifologik qarashlarni ham aks ettiradi.

**Muhokama va natijalar.** Katta-Oʻra, Kichik-Oʻra, Koʻkbuloq va Machay jamoalari tojiklari Gʻuzor shahri tojiklaridan non pishirish usuli jihatidan farq qilgan. Gʻuzor shahrida non "*oshtoni kuloli*" (kulol tandirida) pishirilgan boʻlsa, yuqorida tilga olingan barcha tojik qishloqlarida qozon(*deg*)da va "*tobasang*"da pishirilgan.

Qozonda pishirilgan nonni "*noni rasida*" yoki "*noni degi*", "*tobasang*"da pishirilgan nonni esa "*tobagi non*" deb atashgan. "*Oshtonhoi kuloli*" tandirlari supachaga ogʻzini yuqoriga qaratib va bir oz oldinga egilgan holda qoʻyilgan [11; b.18]. Dehqonobod tumani Duob qishlogʻi tojiklari tosh ustiga qoʻyib "*toba non*" tayyorlashadi.

Koson tumani tojiklari tomonidan *uy noni (xamirturushli non), chapchak non, qora non, vodiy noni* ancha keng tarqalgan boʻlib, bozor rastalaridan oʻrin olgan. Mahallaning holva tayyorlaydigan qandolatchilari joylashgan joy *guzari halvopazon* deyiladi.

**Xulosa.** Quyda keltirilgan xalq ogʻzaki ijodi namunalarida hunarmandchilik va toʻquvchilik oʻz aksini topgan: *"Gilem furӯshū ba azoni xud furush, Ba yak tarafash xudat meshinū" ("Gilam sotsang qoʻningga sot, bir tarafida oʻzing oʻtirasan"), "Daruni kosa ba nim kosa xast" ("Kosaning ichida yarim kosa bor"), "Odami beamal zambӯri beasal" ("Amalsiz odam asalsiz asalari").*

Qashqadaryo vohasi tojiklari hunarmandchiligi asrlar davomida mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy hayotning muhim boʻlagi boʻlib kelgan. Ammo tarixiy jarayonlar, siyosiy va madaniy omillar, bozor talabining oʻzgarishi hunarmandchilik taomillarida ham sezilarli yangilanish va moslashuvlarga sabab boʻlgan.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Абдулкарим ас-Самъоний. НАСАБНОМА (ал-Ансоб). (VIII-XII асрларда яшаган ўзбекистонлик олимлар ҳақида маълумот). Тошкент. 2017. – Б.24.
2. Абулаббос Мухаммад Толиб ибн Тожиддин Хасанхожа ал-Хусайний ас-Сиддиқий Матлаб ут-толибин. Тошкент давлат Шарқшунослик институти хузуридаги Абу Райхон Беруний номли Шарқ қўлёзмалари маркази. - Тошкент: "Movarounnahr" 2016. – Б. 165.
3. Дала ёзувлари. Қашқадарё вилояти Шаҳрисабз тумани Ғелон қишлоғи. 2024 йил.
4. Дала ёзувлари. Қашқадарё вилояти Касби тумани Қамаши қишлоғи. 2025 йил
5. Дала ёзувлари. Қашқадарё вилояти Китоб тумани Сумак қишлоғи. 2024 йил.
6. Кун А.Л. Туркестанский альбом. Часть этнографическая. 1871-1872. – л.91.
7. Рамзлар энциклопедияси. Тузувчилар: С. С. Булатов, М. С. Соипова. – Т.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2021. – Б. 469.
8. Сафаров Холмад Хоркашович. Таърих ва фарњанги роѓ дар асри xix ва ибтидои асри Xx (Проблемаи омўзиши этнографї) . Ихтисоси 07.00.07 - Мардумшиносї, этнология ва антропология диссертатсия барои дарёфти дараљаи илмии номзади илмњои таърих. – Душанбе, 2020. - С. 96.
9. Фарњанги Забони Тољикї. Љ 2. Нашриёти «Советская Энциклопедия» . -М., 1969. -С. 254.
10. Фарҳанги тафсирии забони точики. Пажўҳишгоҳи забон ва адабиёти Рўдаки. Чилди 1 Душанбе. 2010. С. – 655.
11. Эшниёзов М. Шеваи ҳардури. Нашриёти "Ирфон". Душанбе. 1967. Б. 17,18.

12. Sukhareva O.A. Suzani. Central Asian decorative embroidery. —Tashkent: IICAS, SMI-ASIA, 2011. – P. 19, 82.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 10 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).